

LINGVISTIKA
LINGUISTICS

Inomjon Azimov

(Toshkent, O'zbekiston)
azimov@navoiy-uni.uz

Ashurali Zohiriy va Elbekning milliy fonetika xususidagi qarashlari

Abstrakt

O'tgan asr boshlarida yashab ijod etgan millat fidoiylari o'zbek tili-ning adabiy me'yorlarini ishlab chiqish, milliy tilimizga xos xususiyatlarni tadqiq qilish borasida faoliyat olib bordilar. Jadidlar millatning taraqqiy etishida ma'lum qonun-qoidalar asosida tizimlashtirilgan, ma'lum me'yor-ga keltirilgan adabiy til zarurligini anglab yetganlar. Shuning uchun ham o'zbek ziyolilari oldida turgan eng asosiy vazifa o'zbek tilining qonun-qoi-dalarini ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar olib borish edi. Albatta, bu ish o'ta murakkab, sermashaqqat, tinimsiz izlanishlar natijasida yuzaga chiqi-shi, o'sha davrda mavjud bo'lgan turli qarama-qarshiliklarni yengib o'tish orqaligina amalga oshishi mumkinligini tushunib yetganlar. Ular, avvalo, milliy til fonetikasi qanday bo'lishi kerak, degan savolni o'rtaga qo'yidilar. Sababi, o'zbek tili ham boshqa turkiy tillar singari uzoq asrlar davomida singarmonizm qonuniyati asosida rivojlanib kelgan.

Maqolada jadid namoyandalarining taniqli vakillari Ashurali Zohi-riy va Elbekning singarmonizm qonuniyatiga munosabati, singarmonizm-ning lab ohangi ko'rinishi xususidagi bahsli munozaralari, o'zbek tilida unlilar miqdorining singarmonizm qonuniyati asosida belgilanishi kabi qarashlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: jadid, fonetika, fonema, sheva, singarmonizm, unli-lar, lab ohangi, vokalizm, alifbo.

The National Phonetic Views of Ashurali Zohiri and Elbek

Abstract

At the beginning of the last century, selfless representatives of the nation carried out serious works in developing literary norms of the Uzbek language, in studying the unique features of our national language, which

has its system of rules and patterns. Jadids realized that for the formation, development and recognition of the nation, a normalized literary language based on a system of certain rules is needed. Therefore, the main task facing the Uzbek intelligentsia was to develop the rules and patterns of the Uzbek language, conduct research works in this regard. Of course, they understood that this work can be done by accomplishing a rather complicated, laborious and painstaking work, constantly conducting researches, overcoming the various kinds of contradictions that existed at that period.

They raised the question of what the phonetics of the national language should be like, since the Uzbek language, like other Turkic languages, had developed over the centuries according to the principle of synchronism. The article reflects the views of the representatives of Jadid scholars, Ashurali Zohiri and Elbek on the law of synchronism, the controversial positions regarding the sound of labial vowels and the number of vowels in the Uzbek language based on the law of synchronism which highlights various positions regarding the vowels.

Key words: Jadid, phonetics, phoneme, dialect, syngarmonism, vowel, vocalism, alphabet.

Kirish

Millat fidoiylari bo'lgan jadidlarning adabiyotshunoslik faoliyati keng o'rganilgani holda o'zbek tilshunosligiga qo'shgan hissalari bo'yicha sanoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, M.Qurbonova [1993], B.To'ychiboyev [1995], M.Yo'ldoshev [2000], Y.Saidov [2001], Sh.Bobomurodova [2002], T.Tog'ayev [2006], Q.Qodirov [2007], Z.Abdurashidov [2019], S.Normamatov [2019], N.Yangibayeva [2019]larning ishlarini aytib o'tish o'rinlidir. Biroq mazkur ishlar o'zbek tilshunosligining XX asr boshlaridagi holatini batafsil qamrab olgan emas. Buning uchun til muammolari bilan jiddiy shug'ullangan Behbudiy, Munavvar Qori, Elbek, Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiy, G'ozi Olim, Shorasul Zunun, Botu, Mannon Ramz, Otajon Hoshim, Abdulla Alaviy, Vadud Mahmud, Sanjar Siddiq, Abdulla Yo'ldosh, Yoqub Omonlarning ilmiy faoliyatini o'rganib, maxsus tadqiqotlar yaratish davr talabidir.

Jadidlar millatning millat sifatida shakllanishi, tanilishida ma'lum qonun-qoidalarga solingan, ma'lum me'yorga keltirilgan adabiy til zarurligini anglab yetganlar. Bu haqda Elbek shunday yozadi: *"Til ochundag'i bo'lg'on har turli ellarning har biri uchun tangri tomonidan yuborilg'on bir quroldir. Ochundag'i butun ellarning sog' yashamog'i yolg'uz shu tilning ko'lagasidaginadur. Negakim, yer yuzida yashag'on har bir til o'z tili orqasidag'ina dong'in chiqarmoqda va yuksalmoqdadir. Buning teskarisin tutkan ellar yuksalmaklari tursun*

o'zlarin ham yo'qota yozmoqda va yo'qotmishlar" [Elbek 2001, 1].

Shuning uchun ham o'zbek ziyolilari oldida turgan eng katta vazifa – o'zbek tilining qonun-qoidalarini ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar olib borish edi. Abdurauf Fitrat ta'biri bilan aytganda, *"ilmiy axtarishlar bo'lmag'uncha bunlarning birtasi ham bo'lajaq emasdir"* [Фитрат 2006, 141]. Buning uchun xalqimizning og'zaki va yozma manbalarini chuqur tahlil qilish, ularni o'zaro solishtirib, xulosalar chiqarish orqali o'zbek adabiy tili qoidalarini yaratish zarur edi: *"Tilimizdagi tovushlarning sonlarini, cho'zg'i o'runlarini ilmiy suvratda yaxshig'ina aniqlab qo'yayiq. Tilimizning iste'dodli, boy bir til bo'lg'anini qichqirib so'yladiq; "bu til daqqidir (qo'poldir), buning o'rnig'a turkchanning adabiy bir shevasini olayiq" degan til bilmaslar bilan kurashdik – unlarni yengdik. Biroq hanuz tilimizning belgili qoidalarini maydong'a qo'ya olmadiq. Yozuvlarimizning shakliga "birlik" yangi yozg'uchilarimizga qulayliq bermak uchun tilimizning qat'iy qoidalarini bildirish kerak. Hamadan burun u qoidalarni o'zimizningda bilishimiz lozimdir"* [Фитрат 2006, 141].

Albatta, bu ish o'ta murakkab, tinimsiz ilmiy izlanishlar natijasida yuzaga chiqishi, o'sha davrda mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarni yengib o'tish orqaligina amalga oshishi mumkinligini tushunganlar. Buning uchun, birinchi navbatda, xalq og'zaki ijodi namunalari, mumtoz adiblarimiz asarlarini ilmiy asosda tekshirish, ilmiy xulosalar chiqarish lozimligi aytiladi: *"Tilimizning sof shaklini daladag'i el-aymoqlarimizda ko'ra olamiz. Dalada yashag'an el-aymoqlarimiz orasida unlarning jon ozig'i bo'lib turg'an dostonlar, ashulalar, matallar, laparlar, qo'shiqlar bor. Shunlarning hammasini buyuk bir diqqat bilan yozib olish kerak, el-ulus orasida yozuv doirasig'a kirgan ... kabi aristo'krat shoirlarimizning asarlari bor. "Qutadg'u bilig", "Hibatul haqoyiq", "Devoni lug'atit turk", "Muqaddimatul adab" kabi eski vasiqalar bor. Shunlarning hamasini qilni qirq yorib tekshiraylik; bir-biriga solishtirib, kelishtirib, tekli, tubli natijalar olayiq. Mana shu yo'lda, shu shaklda yaraqlanib maydong'a chiqg'animizda ko'rilgan ishlar, olingan natijalar ilmiy bo'lib chiqadir. Kimsaningda lom-mim deyishiga yo'l qolmaydir"* [Фитрат 2006, 141].

Biroq bu ishlarni amalga oshirish, birinchidan, o'ta murakkab, ikkinchidan, sanoqli olimlarning qo'lidan keladigan ish emas edi. Bu barcha millat fidoiylarining birgalikda amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifalari edi: *"Bu ishlarning qulay bo'lmag'ani belgili. Bunlar bir kishining qo'lidan kelmaydir. Bu yo'lda tirishmak yangi chiqg'an yigit yozg'uchilarimizning hamalariga tushadir. Yangi o'zbek adabiyotig'a ilmiy asos bermak, unga zamoniy, madaniy bir borliq bag'ish-*

lamaq uchun mana shu yo'llarg'a bot kirishmak hamamizga lozimdir" [Фитрат 2006, 141].

Ular, avvalo, milliy til fonetikasi qanday bo'lishi kerak, degan savolni o'rta qo'ydilar, chunki o'zbek tili boshqa turkiy tillar kabi uzoq asrlar davomida singarmonizm qonuniyati asosida rivojlanib kelgan edi.

Singarmonizm masalasi

Singarmonizm so'zdagi unlilarning ma'lum nuqtayi nazardan bir xillashishi bo'lib, turkiy tillarning barchasiga tegishli qonuniyat ekanligi mutaxassislar tomonidan aytib o'tilgan [Миртожиев 2013, 294-299; Махмудов 2006, 67-68; Неъматов 1992, 45-59].

Singarmonizmga munosabat masalasida jadidlar o'rtasida ham turlicha qarashlar mavjud edi. Fitrat, Qayum Ramazonlar qoida tuzishda, bir tomondan, turkiy tillar ta'siriga berilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ular ko'proq mumtoz asarlar tilini e'tiborga oldilar. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodini o'zlariga dasturil-amal qilgan holda o'zbek tilida hozirda ham singarmonizm qonuniyati to'la amal qiladi, unlilar yo'g'on-ingichkalik xususiyatiga ko'ra farqlanadi va unlilar soni 8-9 ta degan fikrni ilgari suradilar. Elbek, Ashurali Zohiriy kabi tilshunoslar esa bu qonuniyatga boshqacharoq munosabatda bo'ladi.

Ashurali Zohiriy bu haqda shunday yozadi: *"Singarmo'nizm turk-totor tilining tabiiy tilidir. Lekin zomonning o'tishi, jo'g'rofi(y) ahvollarning o'zgarishi, bir qavmning boshqalar bilan aralashishi va ularning tillarining ta'siri orqasida bu xususiyat turk lahjalarining bir xillarida yo'qola borg'on (ozorboyjon, anqara turklarida). Bu xususiyatni saqlab qolg'onlar: qozoq, qirg'iz, nug'oy, boshqirt, totor, turkmon va o'zbeklardur"* [Жамолхонов, Умаров 2017, 349].

Olim o'zbek tilida singarmonizm hodisasi borligini shunday ta'kidlaydi: *"Bizda singarmunizm yuz foiz bo'lg'usidir. Tilimizga aralashg'on ajnabiy so'zlarni ham o'z qoidamiz (singarmunizmga) bo'yin tovlaydurg'onlari o'rnig'a o'z tilimizdan so'zlar topishga harakat qilamiz"* [Жамолхонов, Умаров 2017, 349].

O'zbek tilidagi o'zlashgan so'zlarni ham singarmonizm qoidalariga bo'ysundirish, ushbu qoidaga bo'ysunmaydigan o'zlashma so'zlar o'rniga tilimizdan so'zlar topish lozimligini aytadi. Lekin ba'zi o'rinlarda o'z fikridan chekinish holatlari ham ko'rinadi: *"G'ijjak, g'altak, g'ildirak, pildiroq, yo'lak singari o'zlashgan forsiy so'zlari (yoki forsiycha qo'shimcha qo'shilgan so'zlar)ni o'zgartmasdan singarmo'nizm qoidasidan mustasno qilamiz. Bu so'zlarning "yo'lak"dan*

boshqasi o'zbekcha bilan forsiycha o'rtasida o'rtoq so'zlar bo'lib, "yo'lak" va ularning ham oxirlardagi "ak", "oq" qo'shimchalari tom forsiychadur. Bularni singarmo'nizmg'a tobe qilsaq, "g'ijjaq, g'al-taq, pildirak, g'ildiroq, yo'loq" bo'lib xalq anglamaydurg'on nusxag'a kirib ketish ehtimoli bor. Shuning uchun bundoqlarni mustasno qilamiz. Bundoq mustasno bo'lg'uchilar tilimizda ko'pchilikni tashkil etmaydurlar" [Жамолхонов, Умаров 2017, 349].

Elbek "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1929-yil 30-yanvar sonida e'lon qilingan "Til, atama, imlo bahslari" rukni ostida "Til imlosi ustida" maqolasida singarmonizm bo'yicha o'z qarashlarini bayon etadi:

"Singarmo'nizm, - deydi adib mazkur maqolasida, - ko'p kishilarni cho'chitkan. Ba'zi bir kimsalarning kulgi va so'kish to'rvalarining yorilishiga sabab bo'lg'on bu "so'z" chindan imlomizning butinlig'in saqlash uchun elim va tilimizning ko'rkini oshirish uchun bir bezakdir. Bu qalinliq va ingichkalik ohangi bizning tilimizning jonidir, yiqilmas qo'rg'onidir. Buni bilmagan turk xalqi yo'q desak, yanglishmaymiz. Bas, bizning demakchi bo'lg'onimiz o'zbek tilining sufati, ya'ni uning bezagi – singarmo'nizm masalasi naq ana shu adabiy, jonli tilimiz masalasidir. Bunga qarshi bo'lg'onlar shubhasiz, shu tilning grajdanlik huquqig'a zarba bergusidurlar" [Жамолхонов, Умаров 2017, 207].

Botu, Miyon Buzruk kabi jadid namoyandalarining singarmonizm tilning rivojiga to'sqinlik qiladi, til chetdan so'z olish bilan rivojlanib boradi, bu so'zlarni singarmonizm ramkasiga solish yaramaydi, degan fikrlariga qarata *"Biz chetdan so'z olinmasin demaymiz. Olin-sin, lekin o'z qolibimizga solinsin, deymiz. Bu vaqt tilimizning o'sishi o'z yo'li bilan borar va yuksalish yulduzi unga kulib qarar deb o'ylay-man. Bo'lmas ekan, tarix, madaniyat, deb javrashidan bo'lak narsaga yaramay qolamizmi, deb qo'rqaman. Mana bizning tilak, o'z tilimizni ishlab so'zlarni jonli qilish, bo'lmag'onlarini chetdan oling'onda ularni tilimizning temir qonunig'a bo'y egdirish kerak"*, deydi [Жамолхонов, Умаров 2017, 210].

Yuqorida ta'kidlangani kabi Ashurali Zohiriy, Botu, Miyon Buzruklar o'zlashgan so'zlarni singarmonizm qonuniga bo'ysundirmaslik masalasini ilgari surgan bo'lsa, Elbek singari jadid ma'rifatparvarlari o'zbek tilida qo'llanishda bo'lgan barcha so'zlar mazkur qoidaga amal qilinishi shartligini aytadi: *"Singarmo'nizm o'zbek tilining tub sufati. Uning birdan bir bezagi, hatto yiqilmas qo'rg'oni bo'lg'ondan, u yuz pirasant saqlansin. Eski so'zlar, qo'shma ismlar, istar turkiy, istar chet so'zlar bo'lsin, biri ikkinchisiga tobe*

tutilmasin, chunki ular har biri ayrim soʻz boʻlgʻonidan oʻz butunligʻin saqlay ola biladir. Singarmoʻnizmcha oʻzgarish yolgʻiz bir soʻz ichida yoxud yarim soʻz, yaʼni qoʻshimchalarning oʻzidan oldingi soʻzga qoʻshilgʻonidagʻina mumkindir. Chet soʻzlar istisnosiz singarmoʻnizm qoidasiga tobe tutilsin. Ruslarda “o” bilan kelgan soʻzlar bizda mutlaq “o” bilan oʻqilishi lozim. Misollar: koʻrurt – kurort, proʻletar – proletar, oʻkrug – okrug kabi. Baʼzi chet soʻzlarining oxirida uchraydurgʻon metallist, jurnalist, kommunist kabi soʻzlarning soʻnggʻidagʻi “t” butunlay chiqarilsin, bizcha: metallis, jurnalis, kommunis ravishlarida oʻqilishi tegish” [Жамолхонов, Умаров 2017, 304].

Imlo qoidalarini belgilashda ikkinchi munozarali masala “lab ohangi” masalasi edi. Fitrat, Qayum Ramazonlar qoida tuzishda, bir tomondan, turkiy tillar taʼsiriga berilgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, ular koʻproq mumtoz asarlar tilini eʼtiborga oldilar. Ular oʻzlarining til saboqlarida “*tub soʻzlarning birinchi boʻgʻinida oʻtru (yaʼni, oʻu) boʻlsa, ikkinchi boʻgʻinida ham oʻtru berish kerak*” degan qoidani ilgari surdilar.

Singarmonizmning yoʻgʻon-ingichkalik koʻrinishiga ijobiy munosabatda boʻlgan Elbek lab ohangini “bir talay tortishishgʻa sabab boʻlaturgʻon masalalar qatorigʻa” kiritadi. Lab ohangi qirgʻiz, usmonli turk shevalarida toʻliq saqlangan, “lekin oʻzbek shevasi lab ohangidan butinlay uzoq desak, yanglishmagʻon boʻlamiz. Chunki bu shevada usmonli va qirgʻiz shevalarida koʻrilgan hol uchramaydir. Bunda soʻzlar ust va ostigʻa qarab choʻziladir. Oʻtru – qorshigʻa qarab choʻzilgʻon soʻzlar oʻtru choʻzgʻisini faqat birinchi hijoda saqlab, qolgʻon hijolarda ostigʻa qarab choʻziladir va oʻtru choʻzgʻisi ost choʻzgʻisigʻa aylanadir” [Жамолхонов, Умаров 2017, 244].

Necha yillardan beri xalq ogʻzaki ijodi namunalari, turli qishloq shevalari ustida izlanishlar olib borayotgan Elbek “*Bu kun lab ohangini qirgʻiz, usmonli turklari yanglik yuz pirasant boʻlmasa ham, oʻrta darajada saqlash kerak, degan oqim va qarash bizda koʻpdan beri surgalib kelmakdadir. Lekin bu qarash ilmiy yoqdan ancha boʻsh boʻlgʻoniday, mantiq yogʻidan butunlay kelishmagan narsadir. Lab ohangi boʻlsa, yo yuz pirasant (qirgʻizlardagʻi kabi) saqlanmogʻi, yo boʻlmasa butunlay tashlanmogʻi lozimdir*”, degan fikrni aytadi, oʻzbek tilida lab ohangi yoʻq degan xulosaga keladi. Shuning uchun birinchi boʻgʻinni “o, u” tovushlari bilan boshlangan soʻzlarning keyingi boʻgʻinlarini “i” bilan yozmoq va shunday oʻqimoqni lozim deb biladi. Bunday qilinsa, birinchidan, til qoidasidan bir qoida kamaygan boʻladi, ikkinchidan, yozish ishida bir qiyinchilikdan qutilib, til qoidasining istisnolarsiz tugal boʻlishiga yoʻl ochiladi, degan fikrni

bildiradi [Жамолхонов, Умаров 2017, 246].

Elbekning fikricha, o'zbek tilida xuddi qirg'iz, turk tillaridagi kabi lab ohangi mavjudligini e'tirof etsak, unga to'la amal qilishimiz, imlo qoidalariga kiritilishi, aksincha, lab ohangi o'zbek tili qoidalariga to'g'ri kelmasligi haqida xulosaga kelish kerak. Olim ikkinchi yo'lni tanlaydi, ya'ni, lab ohangi o'zbek tilida yo'qligi, buni mahalliy shevalar ham tasdiqlashini aytadi. Shu bilan birga, Lutfiy devonidan, "Shayboniynoma" asaridan namunalar keltiradi. Misollarda "o'ttiz, kuyib, ko'nglin" so'zlari "o'ttuz, kuyub, ko'nglun" tarzida yozilmagani, bu ham o'zbek tilida lab ohangi mavjud emasligini ko'rsatadi, deydi [Жамолхонов, Умаров 2017, 246].

Olim bu xususdagi fikrlarini yakunlar ekan, singarmonizmni o'zbek adabiy tilining tub qoidasi deb qabul qilish, imlodagi o'zboshimchaliklarni yo'qotish uchun singarmonizmni 100 foiz amalga oshirish, o'zbek tilidagi barcha so'zlarni mazkur qoidaga bo'ysundirish, lab ohangi faqat birinchi bo'g'inda bo'lishini qoidaga kiritish zarur kabi takliflarni ilgari suradi deydi [Жамолхонов, Умаров 2017, 246].

Bizga ma'lumki, lab singarmonizmi yozma manbalarda to'liq bo'lmasa-da, ma'lum darajada saqlangani tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan. Turkiyshunos olim A.Sherbak lab garmoniyasi, asosan, yopiq bo'g'inli so'zlarda qat'iy saqlanganini, boshqa holatlarda bu qonuniyatning buzilishini aytib o'tadi [Щербак 1962, 74]. H.Ne'matov ham lab uyg'unligiga to'liq amal qilinmaganini, adiblar vazn talabiga yoki shevalar ta'sirida so'zlarning turlicha yozilganini (qolum – qolim, ozum – ozim, konglum – konglim kabi) aytadi [Нематов 1992, 52].

Yuqoridagilarni inobatga olib, Elbek aytganidek, lab ohangi birinchi hijodan nariga o'tmagan kabi fikrlar to'g'ri emas. Chunki birinchi bo'g'indagi lablangan unli ikkinchi va keyingi bo'g'inlardagi unlilarni o'ziga moslashtirganini klassik adiblar asarlaridan istagancha misol keltirish mumkin. Yuqoridagi "ko'nglin, kuyib, o'ttiz" kabi so'zlarda lablangan unli ta'sirida unga moslashishi eski o'zbek tilida qonuniyat bo'lgan. Elbek o'zi yozganidek, yuqoridagi misollarni qo'lyozma manbalardan emas, balki xalq og'zidan ko'chirilgan dostonlardan olgan. Xalq og'zaki ijodida, o'z-o'zidan, shevalar ta'siri kuchli bo'ladi, ular orqali til qonuniyatlari xususida fikr yuritish yanglish xulosalarga olib kelish mumkin. Shuning uchun ham Fitrat, Q.Ramazonlarning lab ohangi masalasida ko'proq mumtoz asarlar tilini e'tiborga olishi va o'zlarining til saboqlarida "tub so'zlarning birinchi

soʻzlarning birinchi boʻgʻinida oʻtru (yaʼni, oʻ, u) boʻlsa, ikkinchi boʻgʻinida ham oʻtru berish kerak” degan qoidani ilgari surishi ilmiy jihatdan asosli edi, chunki tilshunoslikka oid asarlarning barchasida tilshunos olimlar oʻz qarashlari, fikr-mulohazalarini klassik adiblar asarlari misolida asoslashga harakat qilganlar.

Lab ohangi birinchi hijodan oʻtilmasin, buni oʻzbek tili imlo qoidasiga kiritish kerak, degan fikrni ilgari surgan Elbek mazkur qoidaga oʻzi amal qilishga harakat qiladi, *butinlay, boʻlir, nuqil* singari yozishga harakat qiladi, ayrim hollarda lab ohangi mavjudligini bilib-bilmagan holda eʼtirof etishga majbur boʻladi. Fikrlarimizni adib asarlari misolida asoslashga harakat qilamiz:

*“Shu choqqacha gazita betlarida yozilmoqda boʻlgʻon soʻzlarining koʻbi turk tili boyligʻiniing onglatugʻana **boʻlub**, andan boshqa yoqqa **oʻtulmadi**. Shuning uchun ham soʻzni ikkinchi yoqqa, yaʼni, oʻzi turk boʻla **turubda** tilni ishlatudan qochuvchi ham oʻzga tilni soʻzlab yoqlovchi Turkistonning turli oʻgʻlonlarigʻa qarshi koʻchirmakchi boʻlaman, yanada maning **soʻzum** shu **yozuqsiz** oqsanib keldigi til ila turk atalib keluvchi oʻrtoqlargʻa qarshu aytiladur.*

*Biz boshqa narsalarni ikkinchi yoqqa **qoʻyub**, bilim yogʻidan **yolgʻuz** imlo masalasin qoʻlgʻa oseq.*

Bu toʻgʻrida Chigʻatoy gurungining tuzgan qoidasi oʻrunli topiladur. Biroq shunisi borkim, bu erdagi tuzilgan imlo qoidasi yolgʻuz turkcha soʻzlar uchun boʻlub, arabcha, forsiycha soʻzlar mundan tashqari aytilmishdur”.

Elbek publisistik asarlaridagina emas, badiiy asarlarida ham oʻzining fikrlariga zid holda yozishga majbur boʻladi:

*Qoʻy ularni, ular yoʻldan **ozsunlar**,
El ichida boʻsh-boʻgʻozliq **sotsunlar**.
Uchub-uchub shu muhitning ichida
Yuksak yerga qoʻnmoq yerin koʻzladim.
Agar sening hollaringni anglamasa, boqmasa
Oqsun tinmay koʻzlarimdan sening uchun qon yoshim.
Biz shul yerda qishin-yozin **oʻlturub**
Oʻtkaramiz umrimizni yer **surib**¹.*

Bu shundan darak beradiki, Navoiy, Lutfiy kabi klassik adiblarimiz ijodini qunt bilan oʻrgangan Elbek ham oʻsha davr adiblari qatori klassik adabiyot anʼanalaridan chiqib ketolmas edi. Xuddi mumtoz mutafakkirlarimiz singari lab ohangi talablariga amal qili-

¹ Misollar tadqiqotchi Sh.Bobomurodovanning Elbek asarlari boʻyicha toʻplagan xrestomatiyasidan olindi.

shi lozim edi.

Ashurali Zohiriy ham lab ohangining o'zbek tilida to'liq bo'l-masa-da, mavjudligini e'tirof etadi: *"Bizda lab ohangi bor. Lekin qirg'iz va ozarbayjonlilardagi singari yoki singarmo'nizm qoidasi singari "boshdan oyog'g'acha" qat'i bir yo'lda emas. Ko'pincha (fe'lllarda) o'zak bo'g'umlardagi'ina bor"* [Жамолхонов, Умаров 2017, 304].

Olimning fikricha, lab ohangi asosan fe'lllarda faqat o'zak-da amal qilishini aytadi va quyidagicha misol keltiradi: *"Masalan, o'qu, to'qu, cho'qu, no'qu (oqu, toqu, coqu, noqu). Bularning avvalgi bo'g'imidagi "o" ("o") cho'zg'usi, keyingi bo'g'imda ham o'tru kelishni talab qilsa-da, o'z avjidadagina emas, balki pasaygan avjda o'tru talab qiladur. Shuning uchun ularni "o'qo', to'qo'.. (oqo, toqo...)" deb yozib bo'lmaganga o'xshash "o'qi, to'qi" ("oq, toq") deb yozib bo'lmaydur. Negakim, bularning oxirida avvalgi bo'g'imdagi o'truning zo'rg'a yetib kelgan "quvvati bor". "Yetib kelgan quvvati bor" degach, uni "o'qi, to'qi..." (oq, toq...) nusxasida, "zo'rg'a etib kelgan" degach, uni avvalgi bo'g'imiday "o" (o) bilan yozib bo'lmaydur"* [Жамолхонов, Умаров 2017, 304]. Ya'ni, ikkinchi bo'g'indagi unli tovush birinchi bo'g'indagi tovushga nisbatan kuchsizroq talaffuz qilingani uchun "o'qi" tarzida emas, balki "o'qu" tarzida talaffuz qilish va yozishni tavsiya qiladi.

Olim lab ohangi faqat fe'lning o'zagida amal qilishini, bundan chekinish holatlari borligini aytadi, "m" qo'shimchasi bilan ismga aylantirilgan fe'llarda ham yuqoridagidek yozilishi lozim degan fikrga keladi: *"Keyingi bo'g'imda bo'ladurg'on ikkinchi bir o'rin: "uzum, tuxum, to'ruq, qutul, nuqul" (uzum, tuxum, toruq, qutul, nuqul) singari "m" (m) qo'shimchasi bilan ismga aylandurg'on so'zlarda ham yuqoridagi so'zlarga o'xshash so'zlarda "m" (m)dan ilgari o'tru talab qiladurlar"* [Жамолхонов, Умаров 2017, 304].

Bunday qoidaning kiritilishiga "m" yasovchi qo'shimchani "m" egalik qo'shimchasidan farqlash lozimligi sabab qilib ko'rsatildi. Agar shunday qilinmasa, egalik olmoshlarining birinchi shaxs qo'shimchasini fe'llardan yasalgan ismlardan ajratib bo'lmay qoladi, bu esa chalkashliklarga olib kelishi mumkin, maqsadimiz yozuv yo'llari, sarf (morfologiya) qoidalarini iloji boricha soddalashtirish, osonlashtirish kerak, degan xulosaga keladi olim. Shu bilan birga, fe'llarga qo'shilib, ism, sifat yasovchi "q" (q), "k" (k) qo'shimchalari birinchi bo'g'inida lablangan unlilar bo'lganda, yuqoridagi qoida asosida yozilishi aytiladi. Masalan, *"ko'ruk, tuzuk, bo'luq, yuluq, buzuq, yuguruk (koruk, tyzyk, boluq, juluk, buzuq, jygryk)"* kabi.

Lekin -dir, -tir, -lik affikslarini lab unlisi qatnashgan asosdan so'ng -dur, -tur, -luk (o'qutur, tugukluk) tarzida yozishni taklif etgan

Qayum Ramazon fikriga e'tiroz bildiradi va qo'shimchalarga lab garmoniyasining ta'siri yo'qligini etiborga olib, morfologik tamoyil asosida doim *-dir*, *-tir*, *-lik* holida yozishni tavsiya etadi" [Нурмонов 2012, 350].

Lab ohangi bo'yicha turli fikrlar, bahsli qarashlar bo'lishi bilan birga, jadidlar yagona milliy til me'yorlari bo'yicha bir fikrga kelishi lozim edi. Shuning uchun ham 1929-yildagi imlo konferensiyasida Q.Ramazonning taklifi bilan ba'zi bir istisnolar bilan lab ohangi qoidasi tilda ikkinchi bo'g'ingacha saqlansin, degan qaror qabul qilinadi.

Unlilar masalasi

O'zbek tili unlilari miqdorini belgilashda o'sha davrda turli fikrlar mavjud edi. Fitrat o'zbek tili unlilar tizimi masalasida ikki xil fikr yuritadi. 1921-yilda bo'lib o'tgan 1-o'lka til va imlo qurultoyida u o'zbek tili uchun 6 (cho'zg'i) unlili imlo qabul qilish taklifi bilan chiqadi. Mazkur qurultoyda ma'ruza qilgan Ashurali Zohiriy o'zbek tilida 5 ta unli borligini aytadi. Mashhur tilshunos Y.D.Polivanov o'zining "Фонетика Ташкентского говора" asarida turkiy tillar fonologik tizimida ro'y bergan konvergensiya, divergensiya hodisalarini ochib berish asosida Toshkent dialektida singarmonizm qonuniyati yo'qolgani, olti unli fonema mavjudligini ko'rsatgandi. O'zbek yozuvining ham shunga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi [Нурмонов 2012, 350].

1925-1926-yillardan so'ng o'zbek adabiy tili vokalizmini belgilashda singarmonizmli qishloq shevalari xususiyatidan kelib chiqish kerak, degan g'oya ustun kela boshlaydi, shu asosda adabiy tilda ham unlilarning qalin va ingichka juftliklari mavjudligi e'tirof etilgan holda, bu unlilar uchun alifboda 10 ta, hatto 12 harf belgilash tavsiya etiladi. Shuning ta'sirida Fitrat ham yuqoridagi fikrlaridan qaytib, o'zbek tilshunosligi muammolariga bag'ishlab yozilgan "Sarf" asarida 9 ta unli haqida bahs yuritadi. Fitrat o'zbek tilini turkiy tillar tarkibidagi bir til sifatida barcha turkiy tillarda u yoki bu darajada mavjud bo'lgan singarmonizm qonuniyatini aks ettirishini, bu holat esa shahar shevalarida fors-tojik tilining ta'sirida buzilganini, shuning uchun umumturkiy fonetik xususiyatni ko'proq saqlab qolgan qishloq shevalariga tayanish juda to'g'ri ekanini ta'kidlaydi. Ana shu asosda o'zbek tilida unlilarning "yo'g'on"lik va "ingichka"lik belgisi farqlovchi belgi vazifasini bajarishi va shu belgiga ko'ra unlilar ikki qatorga bo'linishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yo'g'on-ingichka-lik belgisi bo'yicha farqlanishga ega bo'lmagan "e" unlisining mavjud ekanini, jami o'zbek tilida 9 unli fonema borligini bayon qiladi.

Ashurali Zohiriyning “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1929-yil 29, 3-mart sonlarida e‘lon qilingan “Til va imlo masalasi” maqolasida adabiy til, imlo, atama, singarmonizm va o‘zbek tilining boshqa masalalari to‘g‘risida bahs yuritilgan. Mazkur maqolada olim unlilar masalasiga ham alohida to‘xtalib o‘tadi. Bu haqda tilshunos olim A.Nurmonov shunday yozadi: “Ashurali Zohiriy o‘zbek adabiy tilida oltitamas, to‘qqizta unli mavjudligini, lotin alifbosida ham ana shu to‘qqizta unli uchun harf olish kerakligini aytadi. Garchi muallif bu fikrini dalillar asosida isbotlamasa ham, Farg‘ona (Andijon, Marg‘ilon, Qo‘qon kabi) shevalarida ma‘no farqlash uchun xizmat qiladigan to‘qqizta fonema borligini his qiladi. Darhaqiqat, unlilar-ning palatal belgisi Farg‘onaning bir qator shevalarida bugungi kunda ham farqlovchi belgi bo‘lib xizmat qiladi va fonologik qimmatga ega. Shu bilan birga, Ashurali Zohiriy ayrim mualliflarning to‘qqiztadan ortiq unli fonemalarga egaligi haqidagi fikrlarining yetarli isbotlanmaganini tanqid qiladi” [Нурмонов 2012, 350-351].

Adib merosini tadqiq qilgan T.Tog‘ayev ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi: “A.Zohiriy o‘zbek tilida unlilar haqida to‘xtalar ekan, ularning sonini to‘qqizta deb belgilaydi. Bunda olim “sof o‘zbek tilida singarmunizm borligi”ga asoslangan. Uning fikricha, “singarmunizm bilan cho‘zg‘ining to‘qqiztalig‘i bir-birig‘a qattiq bog‘lang‘on”. A.Zohiriy unlilar masalasida o‘zbek shevalarida ma‘no farqlash uchun xizmat qiladigan 9 ta unli fonema borligini nazarda tutgan. U unlilar 6 ta deb qarovchilarga qarshi chiqib, “uni qisqartirish kerakligi to‘g‘risida so‘z ochish mantiqsizlik va to‘qqizta bo‘lishining asosini tushunmaslikdir” deb ta’kidlaydi. Shu bilan bir qatorda, unlilar sonini 9 tadan ko‘p deb qarovchilarni ham tanqid qiladi. Ularning o‘z fikrlarini isbotlab bera olmaganini yozadi. A.Zohiriy unlilar soni 9 ta degan fikrda qat’iy turadi: “Demak, hozirgi 9 cho‘zgi shu topdag‘i ilmiy asosg‘a qurilg‘on, uni orttirmaymiz ham, kamaytirmaymiz ham” [Тоғаев 2006, 86].

Lekin bu fikrlar qat’iy yakuniy emasligini, unlilar balki ortishi yoki kamayishi mumkin ekanligini ham ta’kidlaydi: *“Biz hozir tili-mizni tekshirish davridamiz. Tilimizni tekshira borsaq, eshitilmagan so‘zlar, bilinmagan dovushlar, ehtimol chiqib qolar. Bu vaqt tamg‘alarimiz ortdirilar yoki kamaytirilar. Chunonchi, bir necha yuz yillik tajribalar orqasida o‘ruslar alifbosidan ba’zi harflarni chiqarib tashladilar. Bu bilan fo‘netika jahatidan tilga hech bir zarar ham etkani yo‘q. Balki osonroq bo‘ldi. Bizda ham qondoq bo‘lishini keyingi tajribalar ko‘rsatadur”* [Жамолхонов, Умаров 2017, 304].

Albatta, bunday fikr birdaniga paydo bo‘lgani yo‘q. Dastlabki

vazifa eski imlochilar fikrini yengib, 3 unlili imloni 6 unliga keltirish edi. Birdaniga 3 unlidan 9 unliga o'tish o'ta qiyin vazifa ekanligini ular yaxshi tushunib yetganlar. Bu haqda Elbek shunday yozadi: *"6 cho'zg'i (unli)ning o'zbek tiliga etarli javob bera olmaslig'i oldinroq sezilmasada, so'ngg'i choqlar, oyniqsa, yangi alifbega ko'chish oldida ochiq sezila boshlag'on edi. Faqat u choqdag'i yangi alifbega ko'chish oldidag'i cho'zg'i janjali 9 ustida emas, 6 ustida bo'lub kelganidan, to yangi alifbega ko'chmaguncha bu to'g'rida so'z ochish og'ir edi. Harf illatchilarining shovqini hali bosilmag'on bir davrda 6 dan 9 ga ko'chish tugil, shu 6 ning o'zin saqlab qolish katta muvaffaqiyat edi. Mana shuning uchunda 1926-yilg'acha 9 cho'zg'i ustida og'iz ochquchilar oz ko'rindi, to'g'risi, bu masala ustida ortiqcha bosh qotirilmadi* [Elbek 1929].

Tadqiqotchilarning fikricha, 9 unlili vokalizm tarafdorlarining o'sha yillarda faollashuvida 1926-1927-yillarda yuzaga kelgan "Birlashgan (mushtarak) turk alifbosi" yaratish g'oyasining ham ta'siri bo'lgani shubhasiz. Chunki bunday mushtarak alifboning yaratilishida ko'pchilik turk-tatar tillariga xos bo'lgan singarmonizm qonuniyatining hisobga olinishi taqozo qilinardi, ayni paytda, bu g'oya eski o'zbek adabiy tili vokalizmiga hamda hozirgi ayrim qishloq shevalariga xos bo'lgan kontrast juftliklarni adabiy til uchun me'yor deb belgilash imkonini ham berardi [Жамолхонов 2009, 75].

1926-yilda Ozarbayjonda bo'lib o'tgan turkologlar qurultoyida lotin alifbosiga asoslangan yangi alifboga o'tish to'g'risida qaror qabul qilinadi va bu alifbeni barcha turk jumhuriyatlarida qabul etishni tavsiya qilinadi. Mazkur qurultoydan so'ng O'zbekistonda ham yangi alifboga o'tish bo'yicha jiddiy harakatlar boshlanadi. Shu yili Samarqandda yangi alifboning 1-Kengashi o'tkaziladi. Kengash yig'ilishiga O'zbekistondagi barcha taniqli tilshunoslar taklif qilindi. Kengashda lotin alifbosiga asolangan yangi alifboning loyiha varianti muhokama qilinadi hamda o'zbek adabiy tili uchun unlilar miqdorini 9 ta deb belgilab beradi. Bu haqda Elbek o'zining maqolasida ma'lumot berib o'tadi: "Kengashning ko'rsatkan cho'zg'ilari quyidag'ilar bo'lib, bular hali ham ishlatilmakdadur:

- 1) Ust cho'zg'ilar: *a, ə - qol, kəl.*
- 2) O'tru cho'zg'ilari: *o, ø, u, γ - qol, ko'l, qul, kul.*
- 3) Ost cho'zg'ilari: *e, , i - kel, til, qiz.*

Yuqoridagi 9 cho'zg'ini qalin ingichkalikka bo'lganimizda *o, u, , a* qalin so'zlarda ishlatila turg'on cho'zg'ilar *e, i, γ, ø, ə* ingichka so'zlarda ishlatila turg'on cho'zg'ilar deyiladi" [Жамолхонов, Умаров 2017, 228].

Lekin unlilar borasida Elbekning qarashlarida ham qarama-qarshiliklar uchraydi. Tilimiz xususiyati yaxshi tekshirilganda, 9 ta unli ham kamlik qilishini aytadi. “Qara”, “bola” soʻzlarida birinchi boʻgʻindagi “a” unlisi bilan ikkinchi boʻgʻindagi “a” unlisi oʻrtasida oʻzaro farq borligi, qisqa “i” bilan choʻziq “i” oʻrtasida yana bir tovush borligi, ular uchun ham alohida harflar olish lozim, deydi. Shuning uchun unlilar sonini 12 ta deb belgilash boʻyicha taklif beradi deydi [Жамолхонов, Умаров 2017, 230].

Yuqorida taʼkidlanganidek, 9 unli masalasida jadidlar oʻrtasida yagona fikr mavjud emas edi. Bu xususda Botu shunday yozadi: “Biz mushtarak alifbe qabul qildik; toʻqqiz choʻzgʻi oldik, biroq janjal butunlay yechilgani yoʻq. Toʻqqiz choʻzgʻining tilimiz uchun ozligini daʼvo qiluvchilar boʻlgani kabi, bularning koʻpligini isbot etuvchilar ham bor. Oʻzbek tilining xususiyati, taraqqiysi oʻzbek yangi alifbesida bir qancha yangiliklarni toʻldirishni talab qilar ekan, mutaassiblik qilish yaramaydi. Biz, modomiki, yangi alifbe – oʻzbek alifbesi, birinchidan, mehnatkashlarning savodsizligini bitirishga xizmat qiladi va shunday boʻlishi kerak, der ekanmiz, amalda ham shu tomon borishimiz kerak. Bir necha yillik tajribamiz hozirgi toʻqqiz choʻzgʻi omma uchun soʻng darajada ogʻirlik kelishini koʻrsatdi” [Boty 2004, 121-122].

Unlilar miqdori boʻyicha shunday bahs-munozaralar, qarshiliklar taʼsirida Elbek ham chekinishga majbur boʻladi. “Qizil Oʻzbekiston” gazetasining 1933-yil 15-oktabrdagi sonida “Alifbemizni ixchamlash uchun” degan maqola eʼlon qiladi. Mazkur maqolada tilimizdagi unlilar miqdorini keskin kamaytirish masalasini qoʻyadi. Ashurali Zohiriy tavsiya qilganidek, 5ta unli tarafdorlari fikrlarini quvvatlaydi. Unlilarni qisqartirish unlilar rolini inkor qilish emas, balki bu orqali taʼlimda qulaylik yuzaga kelishi hamda yozuvdagi kamchiliklar oʻz-oʻzidan barham topishi mumkinligini aytadi: “Albatta choʻzgʻilarni qisqartirish – choʻzgʻi roʻlini inkor qilish emas, lekin tildagi har bir tovush orqasidan chopqanimizda, jumladan, roʻligʻa baho bermagan boʻlamiz. Yuqoridagʻi kichkina misoldan shu onglashilishi kerakki, biz choʻzgʻining koʻpayishi bilan bizdagi ayrim tovush xususiyatlarini saqlab qolish bilan birga oʻzimizni qiyin holgʻa qoʻygʻon va hatto har bir soʻzning har bir boʻgʻini uchun ham ayrim choʻzgʻilar qabul etishka majbur boʻlgʻon boʻlamiz. Aksini ishlatkanimizda bu narsadin yengil qutila va tilimizni ham bundan boʻshata olamiz”, deydi [Элбек 2001, 68].

Undoshlar xususida

O'zbek tilida undosh tovushlarni belgilashda jadidlar o'rtasida deyarli turli qarashlar kuzatilmaydi. Faqat arab tiliga xos bo'lgan harflarni (ح (hoyi hutti), ژ (je), ض (zod), ص (sod), ظ (zo), ط (to), ث (se), ذ (zol)) alifbodan chiqarib tashlab, 23 ta undosh bo'lishi kerak, degan xulosaga kelinadi [Фитрат 2006, 142].

Bu undoshlar quyidagilar:

ف (f), ق (q), ك (k), گ (g), گ (n - ng), ل (l), م (m), ن (n), غ (g'), ه (h), و (v), ي (y), ب (b), پ (p), ث (t), ج (j), چ (he), خ (x), س (s), ش (sh), د (d), ر (r), ز (z).

1921-yilda o'tkazilgan O'lka qurultoyida Fitrat taklifi asosida undoshlar uchun mana shu 23ta harf qabul qilinadi [Жамолхонов 2009, 77]. Ashurali Zohiriy va Elbek ham Fitrat takliflarini quvvatlab, undoshlarning 23 ta bo'lishi o'zbek tili uchun ma'qul qoida ekanini tasdiqlaydilar. Jumladan, Elbek o'zining "Yozuv yo'llari" darsligida o'zbek tilida undoshlar soni 23 ta deb belgilaydi.

Jadidlarning asosiy xizmatlaridan biri shu bo'ldiki, ular milliy alifboga "ng" (н) tovushi uchun alohida harf kiritdilar. Bu haqda Boy-mirza Hayit shunday yozgan edi: "Jadidchilar arab harflarini qulay o'rgatmoq va turkchani to'g'ri talaffuz ettirmoq uchun arab harflaridagi *fatxa*, *kasra* va *zamma* ishoratlari o'rniga alohida harflarini ilova qilgandilar. Ular bu alifbega turklarning eng eski "ng" harfini ham qo'shdilar. Turkistonda alifbe shu tariqa yaratilgandi" [Boy-mirza Hayit, 1981].

20-yillarning ikkinchi yarmidan turkiy tillarda lotin yozuviga o'tish siyosatining kuchayishi natijasida o'zbek ziyolilari o'rtasida ham lotin yozuvi tarafdorlari ortib bordi. Lotin yozuvining afzalligi, dunyoga chiqish uchun asosiy vosita bo'lishi, yozuv tizimimiz ham osonlashishi bo'yicha turli munozaralar, matbuotda mavzuga bag'ishlangan maqolalar e'lon qilindi.

1926-yil 26-fevral 3-mart kunlari Bokuda Birinchi Butunitifoq turkologiya qurultoyi bo'ldi. Qurultoyda O'zbekistondan Rahim In'omov, Ashurali Zohiriy, Shokirjon Rahimiy, Elbek, G'ozzi Yunus va boshqalar vakil bo'lib boradilar. Fitrat bu anjumanga yirik sharqshunos olim sifatida "alohida chaqiruv bilan" taklif etiladi. Qurultoyda turkiy xalqlarning lotin alifbosiga o'tishlari haqida qaror qabul qilindi. 1929-yilning may oyida Samarqandda bo'lib o'tgan Til va imlo anjumanida lotin alifbosiga o'tish haqida qaror qabul qilindi. Fitrat, Ashurali Zohiriy, Cho'lpon, G'ozzi Olim, Qayum Ramazon, Elbek, Abdulla Alaviy, Shokirjon Rahimiy singari mashhur olim va yozuvchilar, ko'zga ko'ringan madaniyat xodimlari, ziyolilar lotin yozuvi asosida-

gi yangi o'zbek alifbosi va imlosini ishlab chiqish, uni hayotga joriy etish ishiga katta hissa qo'shdilar [Тоғаев 2006, 83].

O'sha davrda qabul qilingan o'zbek alifbosi quyidagicha edi:

A a	B b	C c	Ç ç	D d	E e	Ə ə	F f	G g	Ƣ ƣ	H h	I i
J j	K k	L l	M m	N n		O o	Ө ө	P p	Q q	R r	S s
Ş ş	T t	U u	V v	X x	Y y	Z z	Ƶ ƶ		'		

Lotin yozuviga o'tilgandan so'ng alifboni yanada ixchamlashtirish, matbaa ishlarida qulayliklar yaratish maqsadida undoshlar xususida ham munozaralar paydo bo'ladi. Elbek ham bu munozaralarda faol qatnashadi. Xususan, g (g) va ƣ (g') harflari haqida fikr yuritib, o'zbek tilida "g" ning kam qo'llanishi, shuning uchun "g" va "g" uchun bitta "g" olish alifboda ancha qulaylik yaratishi mumkinligi haqida aytadi. Shu bilan birga, "h" va "x" masalasida to'xtalib, ko'pchilik ularni farqlamasligi, shunga ko'ra ikkalasi o'rnida bitta "h" ni qoldirish taklifini o'rtaga tashlaydi: "Yuqoridag'ilardan tashqari bizda chatoqliq chiqara turg'on harflardan "h" va "x" harflari bor. Bularning birini tashlash kerak, albatta. Bizdagi "h" harfi ikki harf o'rniga yuritilib keladi. Biroq, biz tilimizni tekshirganimizda bu tovushlarning har yerda har xil bo'lib ishlanishini ochiq ko'ramiz, arabcha nuqtasiz h ni esa, ishchi, kulxuzchi ommasi sira ayta olmaydur, ammo "h" ni qattiq "x" o'rnida va, aksincha ishlatishlar ham har vaqt uchraydi. Masalan: Toshkentda "ho'l", "xo'l", "har" ni "xar" ravishda qo'llanish, buning boshqa ko'p joylarda shunday davom etishi so'zimizni isbot eta turg'on dalillardir. Buning uchun, meningcha faqat "h" ni qolib, "x" oradan tashlanishi kerak, chunki "x" ko'p millatlarda "x" emas, balki "ks" bo'lib o'qiladi" [Элбек 2001, 69].

Albatta, bu olimning shaxsiy fikrlari, lekin o'sha paytdagi "g" li so'zlar kam, degan fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki "Navoiy asarlarining izohli lug'ati" da 300 ga yaqin "g" li so'zlar borligini inobatga olsak [Фозилов 1983, 226-266], Elbekning fikrlariga qo'shilib bo'lmaydi. "h" va "x" xususida ham shunday fikrlarni aytish mumkin. Keyingi ikki yil ichida amaldagi alifboni o'zgartirish borasidagi fikrlar ichida ham shunday takliflar bor. Bizningcha, har ikki harfni o'z holicha qoldirish, maqsadga muvofiq.

Xulosa

Yuqoridagi ma'lumotlardan shunday fikr kelib chiqadiki, o'zbek tili qonun-qoidalariga haqida ilmiy qarashlar har doim bahsli bo'lgani, mutaxassislarning o'zlarida ham nazariy bilimlarning

yetarli emasligi va fikrlarning xilma-xilligi ko'zga tashlanadi. Bu xususda H.Jamolxonov shunday yozadi: "... hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmini belgilash yuzasidan olib borilgan dastlabki ishlarda bu masalaga fonema nazariyasiga tayangan holda yondashilmagan, fonema bilan uning nutqdagi real ko'rinishlari o'zaro qorishtirilgan, hatto 6 unlili vokalizm tarafdorlari qarashlarida ham bu masalaga ilmiy-nazariy asosda emas, intuitiv sezgi asosidagina yondashilganligi ko'zga tashlanadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ularda o'z fikrlaridan chekinish holatlari tez-tez ko'zga tashlanadi" [Жамолхонов 2009, 76].

1934-yilda Toshkentda alifbo va imloga bag'ishlangan Respublika qurultoyi o'tkazilib, unda o'zbek adabiy tilida unlilar miqdori 9 ta emas, 6 ta deb hisoblash kerakligi haqida qaror qabul qilinadi. Millat uchun, milliy til sofliqi, uning qonun-qoidalarini ishlab chiqish yo'lida jonini tikkan Ashurali Zohiriy, Elbeklarning zahmatli mehnati zoye ketmadi. Fikrlar xilma-xilligiga qaramay, millat taqdiri uchun qayg'urgan, kerak bo'lsa jonini bag'ishlagan millat fidoiylarining sa'y-harakatlari tufayli o'zbek adabiy tili me'yorlari bosqichma-bosqich shakllanib bordi.

Adabiyotlar

- Абдирашидов, З. 2019. *XX аср бошларида Туркистон: Ижтимоий-сиёсий ва интеллектуал жараёнлар*. Туркия.
- Бобомуродова, Ш. 2002. *Ўзбек тилшунослиги ривожига Элбекнинг роли*. Филол. фанлари номзоди. дисс. автореф. Тошкент.
- Боту. 2004. *Тил ва имло масаласи устида бир неча сўз*. Тошкент: Шарқ.
- Элбекнинг тилга оид асарлари*. 2001. (Тўпловчи: Ш.Бобомуродова). Тошкент.
- Фитрат, Абдурауф. 2006. *Танланган асарлар*, IV жилд. Тошкент: Маънавият.
- Ҳайит, Боймирза. 1981. *Туркистонда жадидчилик ва унинг тугатилиши*. www.kh-davron.uz.
- Жамолхонов, Ҳ. 2009. *Ўзбек тилининг назарий фонетикаси*. Тошкент: Фан.
- Жамолхонов, Ҳ., Умаров, А. 2017. *Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи*. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси.
- Маҳмудов, Қ. 2006. *Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси*. Тошкент: Ижод.
- Миртожиев, М. 2013. *Ўзбек тили фонетикаси*. Тошкент: Фан.
- Муин, Ҳожи. 2010. *Танланган асарлар*. Тошкент: Маънавият.
- Неъматов, Ҳ. 1992. *Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Нормаматов, С. 2019. *Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни*. Филол. фанлари доктори (DSc) дисс. автореф. Тошкент.
- Нурмонов, А. 2012. *Танланган асарлар*. Тошкент: Академнашр.
- Қодиров, Қ. 2007. *Ўзбек тили морфологик тизимининг ўрганилиш тарихидан (20-йиллар ўзбек тилшунослиги асосида)*. Филол. фан. номзоди дисс... автореф. Тошкент.
- Қурбонова, М. 1993. *Фитратнинг тилшунослик мероси*. Филол. фанлари

- номзоди. дисс. автореф. Тошкент.
- Сайидов, Ё. 2001. *Фитрат бадий асарлари лексикаси*. Филол. фанлари номзоди. дисс. автореф. Тошкент.
- Тоғаев, Т. 2006. *Ашуралӣ Зоҳирӣ ва унинг тилшунослик мероси*. Филол. фанлари номзоди. дисс. Тошкент.
- Тўйчибоев, Б. 1995. *Фитрат – тилшунос*. Тошкент.
- Янгибаева, Н. 2019. *XX асрнинг 20-йилларида ўзбек тилшунослиги жараёни («Маориф ва ўқитғучи» журнали материаллари асосида)*. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) дисс. автореф. Қарши.
- Йўлдошев, М. 2000. *Чўлпоннинг бадий тил маҳорати («Кеча ва кундуз» романи мисолида)*. Филол. фанлари номзоди. дисс. автореф. Тошкент.
- Щербак, А.М. 1962. *Грамматика староузбекского языка*. Москва-Ленинград.

References

- Abdirashidov, Z. 2019. *XX asr boshlarida Turkiston: Izhtimoiy-sijosij va intellektual zharajonlar*. Turkija.
- Bobomurodova, Sh. 2002. *Uzbek tilshunosligi rivozhida Elbekning roli*. Filol. fanlari nomzodi. diss. avtoref. Toshkent.
- Botu. 2004. *Til va imlo masalasi ustida bir necha suz*. Toshkent: Sharq.
- Elbekning tilga oid asarlari*. 2001. (Tuplovchi: Sh.Bobomurodova). Toshkent.
- Fitrat, Abdurauf. 2006. *Tanlangan asarlar*, IV zild. Toshkent: Manavijat.
- Hajit, Bojmirza. 1981. *Turkistonda zhadidchilik va uning tugatilishi*. www.kh-davron.uz.
- Zhamolhonov, H. 2009. *Uzbek tilining nazariy fonetikasi*. Toshkent: Fan.
- Zhamolhonov, H., Umarov, A. 2017. *Uzbek jozuvining XX asr tarihi*. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Millij kutubhonasi.
- Mahmudov, Q. 2006. *Uzbek tilining tarihiy fonetikasi*. Toshkent: Izhod.
- Mirtozhiev, M. 2013. *Uzbek tili fonetikasi*. Toshkent: Fan.
- Muin, Hozhi. 2010. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Manavijat.
- Nematov, H. 1992. *Uzbek tilining tarihiy fonetikasi*. Toshkent: Uqituvchi.
- Normamatov, S. 2019. *Uzbek lugatchiligining shakllanishi va rivozhlanishida zhadid marifatparvarlarining urni*. Filol. fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. Toshkent.
- Nurmonov, A. 2012. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Akademnashr.
- Qodirov, Q. 2007. *Uzbek tili morfologik tizimining urganilish tarixidan (20-jillar uzbek tilshunosligi asosida)*. Filol. fan. nomzodi diss... avtoref. Toshkent.
- Qurbonova, M. 1993. *Fitratning tilshunoslik merosi*. Filol. fanlari nomzodi. diss. avtoref. Toshkent.
- Sajidov, J. 2001. *Fitrat badiij asarlari leksikasi*. Filol. fanlari nomzodi. diss. avtoref. Toshkent.
- Togaev, T. 2006. *Ashurali Zohirij va uning tilshunoslik merosi*. Filol. fanlari nomzodi. diss. Toshkent.
- Tujchiboev, B. 1995. *Fitrat – tilshunos*. Toshkent.
- Jangibaeva, N. 2019. *XX asrning 20-jillarida uzbek tilshunosligi zharajoni («Maorif va uqituchi» zhurnali materiallari asosida)*. Filol. fanlari bujicha falsafa doktori (Phd) diss. avtoref. Qarshi.
- Juldoshev, M. 2000. *Chulponning badiij til mahorati («Kecha va kunduz» romani*

Muallif haqida: *Azimov Inomjon Mamasodiqovich* – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

Iqtibos uchun: Azimov, I. M. 2020. "Ashurali Zohiriy va Elbekning milliy fonetika xususidagi qarashlari". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 6–23.

About the author: *Inomjon M. Azimov* – Candidate of Sciences in Philological, Associate Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

For citation: Azimov, I. M. 2020. "The National Phonetic Views of Ashurali Zohiri and Elbek". *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 6–23.